



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI**

**NAVOIY VILOYATIDA
OLIY TA'LIM FAOLIYATINING
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI
(2021/2022- o'quv yili uchun)**



O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi

Zamonaviy dunyo innovatsiyalar davri bo'lib, unda tegishli ta'limsiz karyera qurish, ish topish va katta yutuqlarga erishish dargumondir. Buni esa yoshlar juda yaxshi tushunishadi: bugungi kunda butun dunyo universitetlarida bir milliarddan ziyod talaba ta'lim olmoqda. Bu raqam O'zbekiston talabalarini ham o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda har bir kishiga jinsi, tili, yoshi, irqi, millati, e'tiqodi, dinga bo'lgan munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, kasb-hunar turi, ijtimoiy mavqei, yashash joyi, respublika hududida istiqomat qilish davomiyligidan qat'iy nazar, ta'lim olish huquqi kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, hozirgi vaqtda yoshlar eng nufuzli oliygohlarga kirish uchun intiladi, lekin oliy o'quv yurtlari o'rtasida bilimli va iqtidorli yoshlarni jalb qilish bo'yicha raqobat yo'q. Shu sababli, **xususiy oliygohlarga ham kerakli mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmasi berish tizimi yo'lga qo'yiladi**. Yurtimizdagi 30 ta yetakchi oliygohga o'quv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi beriladi. (<https://president.uz/oz/lists/view/4050>)

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi bo'lib, respublika qonunchiligiga muvofiq umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim negizida oliy ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha davlat ta'lim standartlariga muvofiq fanlarning dasturlari va o'quv rejalarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari;
- oliy ta'limni normativ-huquqiy va ilmiy-uslubiy ta'minoti bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;
- oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari, shuningdek, ularga bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA‘LIM

Oliy ta‘lim ikki bosqichga – bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta‘lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar beradigan, o‘qish davomiyligi kamida uch yil bo‘lgan tayanch oliy ta‘limdir. Dastur yakunida davlat komissiyasi tomonidan bitiruvchilarga o‘qish yo‘nalishi bo‘yicha “bakalavr” malakasi beriladi va tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo‘yicha o‘qish davomiyligi kamida bir yil bo‘lgan oliy ta‘limdir. O‘qishni tugatgandan so‘ng bitiruvchilar ma‘lum bir mutaxassislik bo‘yicha diplom va magistr darajasiga ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasida quyidagi oliy ta‘lim tashkilotlarining turlari mavjud: universitet, akademiya, institut (ularga tenglashtirilgan oliy o‘quv yurtlari).

Universitet – eng keng mutaxassisliklar bo‘yicha oliy yoki oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim dasturlarini taklif qiladi.

Akademiya – alohidagi ilmiy sohalar va yo‘nalishlar bo‘yicha oliy va institutdan keyingi ta‘limning pedagogik dasturlarini amalga oshirish bilan shug‘ullanadi.

Institut – aniq bilim sohasi doirasida ma‘lum bir yo‘nalishlar va darajalar bo‘yicha oliy yoki oliy ta‘limdan keyingi ta‘limning o‘quv dasturlarini amalga oshirish sohasida faoliyat yuritadi.



NAVOIY VILOYATIDA OLIY TA'LIM

Oliy ta'lim tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari (o'quv yili boshiga, birlik)

Navoiy viloyatida oliy ta'lim tizimida 2 ta oliy ta'lim tashkilotlari – Navoiy Davlat Pedagogika Instituti va Navoiy Davlat Konchilik Instituti faoliyat yuritmoqda.

Navoiy viloyatida 2021/2022- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlarida 21710 ta talaba tahsil olayotgan bo'lib, ulardan bakalavr bosqichida 21244 nafar talaba, magistratura bosqichida 466 nafar talaba tahsil olmoqda.

| O'quv yili boshiga | Oliy ta'lim tashkilotlari soni, birlik | Talabalar soni, kishi | Qabul qilinganlar soni, kishi | Bitirganlar soni, kishi | Professor o'qituvchilar soni, kishi |
|--------------------|--|-----------------------|-------------------------------|-------------------------|-------------------------------------|
| 2020/2021 | 2 | 17015 | 5480 | 3107 | 714 |
| 2021/2022 | 2 | 21710 | 5604 | 3895 | 738 |

2021/2022- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlaridagi 21710 nafar talabalardan, **davlat grantlari** asosida 4152 nafar, **to'lov shartnoma** asosida esa 17558 nafar talabalar tahsil olmoqda. Jami talabalar sonidan kunduzgi bo'limda 13843 nafar, kechki bo'limda 574 nafar, sirtqi bo'limda esa 7193 nafar talabalar tahsil olmoqda.




NAVOIY VILOYATIDA OLIY TA'LIM

Oliy ta'lim tashkilotlarining talabalari soni


(o'quv yili boshiga, ming kishi)

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni yildan-yilga ortib bormoqda. 2021/2022- o'quv yilida 2020/2021- o'quv yiliga nisbatan 27,6 % ga oshdi.




Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari soni

(o'quv yili boshiga, ming kishi)



Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul natijalari

(o'quv yili boshiga, ming kishi)




■ Qabul qilinganlar ■ Topshirilgan arizalar
(qabul qilingan talabalarning abituriyentlarga nisbati)

NAVOIY VILOYATIDA OLIY TA'LIM

Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul natijalari, ta'lim bosqichlari kesimida (o'quv yili boshiga, ming kishi)


BAKALAVRIAT

(2021/2022- o'quv yili boshiga,
ming kishi)





MAGISTRATURA

(2021/2022- o'quv yili boshiga,
ming kishi)



- ❖ Topshirilgan arizalar
- ❖ Qabul qilingan talabalar


2021/2022- o'quv yili boshiga oily ta'lim muassasalariga jami 5604 nafar yoshlar talabalikka qabul qilingan, ulardan davlat granti asosida 1321 nafar (23,6%), to'lov shartnoma asosida 4283 nafar (76,4%) talaba qabul qilingan.



- ❖ Topshirilgan arizalar
- ❖ Qabul qilingan talabalar
- ❖ qabul qilingan talabalarning abituriyentlarga nisbati



NAVOIY VILOYATIDA OLIY TA'LIM

Oliy ta'lim tashkilotlarining talabalari soni (2021/2022- o'quv yili boshiga, ming kishi)



- ❖ jami talabalari soni
- ❖ davlat granti bo'yicha o'qiyotgan talabalari soni
- ❖ davlat granti bo'yicha o'qiyotgan talabalar sonining jami talabalari soniga nisbati

Ta'lim turlari bo'yicha (ming kishi)



NAVOIY VILOYATIDA OLIY TA'LIM

Oliy ta'lim tashkilotlarining talabalari soni,
ta'lim turlari va bosqichlari kesimida
(2021/2022- o'quv yili boshiga, ming kishi)

BAKALAVRIAT

MAGISTRATURA



❖ Kunduzgi ta'lim

❖ Sirtqi ta'lim


❖ Kechki ta'lim



NAVOIY VILOYATIDA OLIY TA'LIM

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining gender taqsimoti, ta'lim turlari kesimida

(2021/2022- o'quv yili boshiga, ming kishi)



2021/2022- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlarida jami 21710 nafar talaba tahsil


olmoqda, ulardan 12762 nafarini (58,8 %) qizlar va 8948 nafarini yigitlar (41,2 %) tashkil etdi.




NAVOIY VILOYATI OLIY TA'LIM

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining gender taqsimoti, ta'lim bosqichlari kesimida (o'quv yili boshiga, ming kishi)



BAKALAVRIAT



MAGISTRATURA





Jami 2021/2022- o'quv yili uchun



❖ Erkaklar ❖ Ayollar

NAVOIY VILOYATIDA OLIY TA'LIM

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining yoshi va ta'lim olayotgan tillari bo'yicha taqsimoti (2021/2022- o'quv yili boshiga, ming kishi)




❖ 2021/2022- o'quv yili
❖ 2020/2021- o'quv yili



NAVOIY VILOYATIDA OLIY TA'LIM

Oliy ta'lim tashkilotlarida o'qiydigan kurslari bo'yicha talabalar soni, kishi
(2021/2022- o'quv yili boshiga)



Oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarining umumiy soni 21710 nafarni tashkil etib, ulardan 1- kursda 5604 nafar, 2- kursda 7039 nafar, 3- kursda 5559 nafar, 4- kursda 3508 nafar talabalar tahsil olmoqda.



NAVOIY VILOYATIDA OLIY TA'LIM

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha taqsimoti (2021/2022- o'quv yili boshiga, ming kishi)



BAKALAVRIAT

MAGISTRATURA




NAVOIY VILOYATIDA OLIY TA'LIM

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining ta'lim sohalari bo'yicha taqsimoti (o'quv yili boshiga, ming kishi)

| | 2019/ 2020 | 2020/ 2021 | 2021/ 2022 |
|--|---------------|---------------|---------------|
| Gumanitar soha | 10,1 | 12,8 | 16,5 |
| pedagogika | 10,1 | 12,8 | 16,5 |
| gumanitar fanlar | - | - | - |
| matematika | - | - | - |
| tabiiy fanlar | - | - | - |
| san'at | - | - | - |
| islomshunoslik | - | - | - |
| Ijtimoiy soha, iqtisodiyot va huquq | 0,1 | 0,1 | 0,1 |
| sotsiologiya va psixologiya | - | - | - |
| jurnalistika va axborot | - | - | - |
| iqtisodiyot | 0,1 | 0,1 | 0,1 |
| huquq | - | - | - |
| Ishlab chiqarish texnika sohasi | 3,3 | 4,0 | 4,7 |
| muhandislik ishi | 2,3 | 2,7 | 3,1 |
| ishlab chiqarish texnologiyasi | 1,0 | 1,3 | 1,6 |
| kompyuter texnologiyalari va informatika | - | - | - |
| arxitektura va qurilish | - | - | - |
| aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari | - | - | - |
| Qishloq va suv xo'jaligi | - | - | 0,1 |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | - | - | 0,1 |
| qishloq xo'jaligida menejment | - | - | -- |
| qishloq xo'jaligi texnikasi | - | - | - |
| veterinariya meditsina | - | - | - |
| irrigatsiya va melioratsiya | - | - | - |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot | - | - | 0,1 |
| sog'liqni saqlash | - | - | 0,08 |
| ijtimoiy ta'minot | - | - | 0,02 |
| Xizmatlar sohasi | 0,1 | 0,1 | 0,2 |
| xizmat ko'rsatish sohasi | 0,1 | 0,1 | 0,2 |
| transport | - | - | - |
| atrof-muhitni himoya qilish | - | - | - |
| hayot faoliyati xavfsizligi | - | - | - |

NAVOIY VILOYATIDA OLIY TA'LIM

Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni (2021- yil, ming kishi)



NAVOIY VILOYATIDA OLIY TA'LIM

Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari soni



(2021/2022- o'quv yili boshiga, kishi)



❖ JAMI

❖ Ilmiy darajaga ega bo'lganlar

❖ Ilmiy unvonga ega bo'lganlar






Oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchi xodimlarining gender taqsimoti

(2021/2022- o'quv yili boshiga, kishi)



Ayollar



Erkaklar



NAVOIY VILOYATIDA OLIY TA'LIM

Navoiy viloyatining oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olayotgan, qabul qilingan va bitirgan chet ellik talabalar soni
(2021/2022- o'quv yili boshiga, kishi)

Turkmaniston



Ta'lim olayotganlar - 4
Qabul - 0
Bitirgan - 3

Rossiya



Ta'lim olayotganlar - 11
Qabul - 4
Bitirgan - 0

Qozog'iston



Ta'lim olayotganlar - 5
Qabul - 0
Bitirgan - 1

Tojikiston



Ta'lim olayotganlar - 1
Qabul - 0
Bitirgan - 0

Ukraina



Ta'lim olayotganlar - 0
Qabul - 2
Bitirgan - 0

Turkiya



Ta'lim olayotganlar - 1
Qabul - 0
Bitirgan - 0



**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:
Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



Tel.: +99879 223-54-98

